



## BUYUK JASORAT EGASI!

*Yo'ldosheva Farangiz Sayfiddin qizi  
Toshkent davlat transport universiteti  
Yurisprudensiya (xalqaro transport huquqi) 2-bosqich talabasi  
[yoldoshevafarangiz311@gmail.com](mailto:yoldoshevafarangiz311@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston va Ozarbayjon xalqining suyukli farzandi Maqsud Shayxzodaning uzoq tarixga yuzlanib juda ta'sirli qilib gavdalantira olgan "Jaloliddin Manguberdi" tarixiy drammasi haqida ma'lumotlar o'rinn olgan.

**Kalit so'zlar:** jasorat, vatan tuyg'usi, tarix, drama, urush, mo'g'ul, dushman.

### ОБЛАДАТЕЛЬ БОЛЬШОГО МУЖЕСТВА!

Юлдошева Фарангиз Сайфиддиновна.  
Ташкентская область транспортный университет  
Юриспруденция (международное транспортное право) студент 2 ступени  
[yoldoshevafarangiz311@gmail.com](mailto:yoldoshevafarangiz311@gmail.com)

**Абстрактный.** В данной статье содержится информация об исторической драме «Джалалуддин Мангуберди», которую очень впечатляюще воплотил Максуд Шейхзода, любимое дитя народов Узбекистана и Азербайджана.

**Ключевые слова:** мужество, патриотизм, история, драма, война, монголы, враг.

### THE OWNER OF GREAT COURAGE!

Yoldosheva Farangiz Sayfiddinovna  
Tashkent state transport university  
Jurisprudence (international transport law) 2nd stage student  
[yoldoshevafarangiz311@gmail.com](mailto:yoldoshevafarangiz311@gmail.com)

**Abstract.** This article contains information about the historical drama "Jalaluddin Manguberdi", which was very impressively embodied by Maqsud Sheikhzoda, the beloved child of the people of Uzbekistan and Azerbaijan.

**Key words:** courage, patriotism, history, drama, war, Mongol, enemy.



Tarix! U hech qachon unutilmaydigan, ammo insonlar ongida abadiylikka muhrlanadigan oliv tushunchadir. O'tmishda o'tib ketgan nechayin insonlar mavjud. Ulardan bugungacha o'z e'tiborini yo'qotmay kelgan Amir Temur va Temuriylar davlati, Shayboniyxon va Shayboniylar davlati va eng ahamiyatlisi juda qisqa umr ko'rgan yosh podsho Jaloliddin Manguberdi va Xorazmshohlar davlatidir.

Tarixda buyuk iz qoldirgan xorazmshohlar sulolasining mashhur siymolaridan biri bo'lgan Alouddin Muhammad (hukmronlik davri 1200 —1220 y.) dastavval G'ur sultonlari Shihobiddin va G'iyosiddin bilan jang qildi. G'uriylar Marv, Tus va Xurosonni qo'lga kiritish niyatida edilar. Alouddin Muhammad Nishopur, Marv, Saraxsni zabit etdi. Undan so'ng Xorazmshoh ko'p janglar o'tkazdi, g'uriylarni kuchsizlantirib, ularning ko'p yerlarini tortib oldi. Bora-bora, bir vaqtlar qudratli hisoblangan g'uriylar davlati Alouddin Muhammadning tazyiqi sabab, parchalanib ketdi.

Alouddin Xorazmshoh bunday natijalarga ko'p jihatdan qoraxitoylar orqali erishdi. Biroq u keyinchalik, qudrat kasb etib borayotganini his qildi, o'zi vassal bo'lgan qoraxitoylarga qarshi yurishlar qilib, ularni yengdi. Undan keyin Xorazmshoh Tabaristonda bovandiylar hukmronligini yo'q qildi, Samarqand sultoni Usmonni o'ldirib, qoraxoniyarlarni tarix sahnasidan butunlay chiqarib yubordi. Dashti Qipchoqdagi ko'chmanchi qipchoqlarning ustidan ham g'alaba qozongan Alouddin Muhammad 1215 yilda Sig'nojni o'z davlatiga qo'shib oldi.

Ayni paytda Eron va Afg'onistonda ham obro'si oshib borayotgan Xorazmshoh G'azna va uning atrofini bosib oldi. Bu yerlarni u o'g'li Jaloliddin Manguberdiga berdi. Alouddin 1217 yilda Fors otabegi Sa'd ibn Zangi va Ozarboyjon otabegi O'zbekni yengib, o'z itoati ostiga oldi.

Shunday qilib, Xorazmshohlar imperiyasi yanada kengayib, Sirdaryodan Iroqi Arabga cho'zilgan ulkan hududga ega bo'ldi va o'sha davr Islom olamining eng qudratli davlatiga aylandi.

Biroq shunday qudratga ega bo'lgan sulton Alouddin Muhammad o'z davlat mexanizmiga tamomila hukmron bo'la olmadidi. Mo'g'ullar istilosini arafasida xorazmshohlar davlatida o'ziga xos diarxiya — ikki hokimlik tuzumi vujudga kelgan: mutlaq hukmdor deb sulton Muhammad hisoblanardi, ikkinchi tarafdan u o'z onasi Turkon xotunning itoatida edi. Turkon xotun esa davlatning ichki va tashqi ishlarida ikkinchi hukmdor, ayrim masalalarda hatto sultonga muxolif ham edi. Xorazmshohning buyruq va farmonlari ko'pincha qudratli Turkon xotun tomonidan bekor qilinar va hech qanday kuchga ega bo'lmay qolardi.



Shihobiddin an-Nasaviy shunday yozgan: «...Xorazmshoh onasiga qarshi chiqolmas edi... kichik ishlarda ham, jiddiyalarida ham, ahamiyatsizlarida ham. Bu ikki sababga ko'ra edi: birinchisi — farzandlik burchi bo'lsa, ikkinchi va eng asosiysi, mamlakatning barcha amirlari onasining urug'idan ekanligi».

«Jahon hokimi» degan laqabga ega bo'lган Turkon xotun faqat sultonga hukmini o'tkazibgina qolmay, balki moliya ishlarini ham boshqarardi va amirlar, amaldorlarga ham farmon berardi. Bu holat mo'g'ullar istilosiga arafasida xorazmshohlar davlatidagi ahvolning barqarorligini birmuncha yo'qotdi.

1218 yilda Movarounnahrga kelgan Chingizzon elchilari Alouddin tomonidan qabul qilindi. Ikki o'rtada savdo shartnomasi tuzildi. Biroq Chingizzonning savdogarlar karvoni O'trorga kelganda shu yerning noibi Inolxon ularni qatl etib, mol-dunyolarini tortib oladi. Aslini olganda, qatl etilganlar savdogarlar niqobidagi joususlar ekani ayon bo'lsa ham, aniq isbotlar yo'qligi sabab, bu o'ta jiddiy siyosiy xatoga aylandi. Bu mudhish voqeа oqibatda necha-necha minglab musulmonlarning halok bo'lishiga olib keldi.

1231 yil avgust oyida tushkunlikka tushgan Sulton aysh-ishrat va sarxushlikka beriladi. Shunday kunlardan biridan so'ng Jaloliddin qattiq mast bo'lib qoladi va qattiq uyquga ketadi. U hattoki, o'rdasini mo'g'ullar o'rabi organini sezmay qoladi. Uning sodiq amirlaridan biri O'rxon askarlari bilan Manguberdini qiyinchilik bilan qutqarib qoladi, uni mastligicha otga o'tqazib, choptirib ketadi. Yo'lda Sulton o'ziga keladi va O'rxonga dushman chalg'iydi, degan o'yda boshqa tarafga ketishni amr qiladi-da, o'zi boshqa yo'ldan ot soladi.<sup>1</sup>

Jaloliddin Manguberdining taqdiri shundayin mashaqqatlarga to'la va o'ta ziddiyatlarga boy davrga to'g'ri keladi. XX asr o'zbek adabiyotining yetuk zabardasti Maqsud Shayxzoda chekiga ham aynan shunday buyuk shaxsni gavdalantirish baxti nasib etdi. Shunday ijodiy buyurtmani olgan Shayxzoda o'zbek xalqining jasur farzandlaridan biri Jaloliddin haqida sahna asarini yozishga kirishdi. Mo'g'ul istilosi davrida Movaraunnahrda katta jasorat ko'rsatgan Jaloliddin haqida Shayxzodaga qadar birorta badiiy asar yaratilmagan, sovet tarixchilarining ilmiy asarlarida esa uning na nomi, na jangovar jasorati iliq so'zlar bilan tilga olingan edi. Shunga qaramay, Shayxzoda bu ajoyib siymo haqidagi Shahobuddin Muhammad Nasaviyning "Siyrat as-sulton Jaloliddin Mangburni" va Alouddin Atomalik Juvayniyning "Tarixi jahongushoyi Juvayniy" kabi asarlarini o'qib, shu asarlarda tasvirlangan tarixiy davr voqealari asosida o'z asarini yozishga ahd qildi. Shuni

<sup>1</sup> <http://khorezmiy.uz/oz/pages/view/324>



alohida qayd etish joizki, Jaloliddin haqidagi noyob manbalardan biri - Nasaviyning nomi yuqorida qayd etilgan asarida mashhur sarkardaning ismi Jaloliddin Mangburni deb atalgan. "Mangburni" laqabini ayrim tarixchilar "burnida xoli bor", "xoldor" deb talqin qiladilar. Ammo Shayxzoda o'z asarida Jaloliddinni, tarixiy manbalardan farqli o'laroq, "Manguberdi" deb atagan va Nasaviy kitobidagi "Mangburni" so'zini o'zbek tiliga shunday tarjima qilgan. Va mashhur sarkarda o'zbek xalqi o'rtasida hanuzgacha shu nom bilan yashab keladi. Tarixiy manbalarga qaraganda, agar Xorazmshoh Chingizzonning tinchlik va totuvlik haqidagi taklifmi qabul qilib, u yuborgan elchi bilan birga savdo karvonini ham qilichdan o'tkazmaganida, qudratli Xorazm sultanati XIII asrda mo'g'ullar tomonidan qonga botirilmagan bo'lardi. Xorazmshoh Chingizzonning o'sha davrdagi eng qudratli qo'shinni to'plagani bilan hisoblashmay, katta xatoga yo'l qo'ygan bo'lsa, chor atrofga o'lim urug'ini sochib, ya'juj-ma'juj singari bosib kelayotgan mo'g'ullarga qarshi otlangan Jaloliddinga yordam bermay, aksincha, unga har tomonlama qarshilik ko'rsatib, yana-da katta xato qilgan. Jaloliddin vatan va tarix oldidagi burchini chuqur his etgani uchungina kichik bir qo'shin bilan mo'g'ullarga qarshi tengsiz kurashga otlanadi va chinakam jasorat namunalarini ko'rsatadi. Jaloliddin mo'g'ullarning ashaddiy dushmani bo'lganiga qaramay, Chingizzon uning dovyurakligi va sarkardalik mahoratiga tan berishga majbur bo'ladi. Shayxzoda yetuk yozuvchi sifatida yoza boshlagan ilk sahna asariga ana shunday tarixiy shaxsni - mo'g'ul qo'shinlariga g'ulg'ula solgan, g'alaba yuz o'girgan jang maydonlaridan ham omon-eson chiqib ketgan Jaloliddinni qahramon qilib oladi.

"Jaloliddin Manguberdi" dramasida Shayxzoda Vatan erki, mustaqilligi uchun fidoyilarcha kurash olib borgan mana shu jasur sarkarda qiyofasini badiiy gavdalantirdi. Jaloliddin Manguberdi Amir Temurga ham ibrat bo'lgan buyuk siyodir. Taniqli adabiyotshunos Naim Karimovning fikriga ko'ra, urush yillarda hokimiyat vakillari yozuvchilarni o'tmishdagi mashhur sarkardalar haqida asar yozishga da'vat etishgan. Ular bunday asarlar xalq va armiyani o'tmishdagi jasur sarkadalardan, xalq qahramonlaridan ibrat olishga da'vat etishi, ularni bu mashhur shaxslarning vatanparvarlik fazilatlari ruhida tarbiyalashi mumkin degan qarashda bo'lishgan. Shunday ijodiy buyurtmani olgan Shayxzoda o'zbek xalqining jasur farzandlaridan biri Jaloliddin Manguberdi haqida sahna asari yozishga kirishgan. Respublikaning o'sha paytlardagi rahbari Usmon Yusupov shoirning asarini tezroq yakunlashi uchun uni yurtimizning xushmanzara maksanlaridan biri Farg'ona viloyatiga yuboradi. "Boshqa ishlar bilan xayolingni bo'lma. Xalq sendan Jaloliddin to'g'risidagi asarni intazorlik bilan kutmoqda. Vodiya borib, uni tezroq tugallab



qayt!" deya rahbar shoirni ruhlantiradi. Shunday qilib, Maqsud Shayxzoda rafiqasi Sakinaxonim bilan Farg'onaga borib, olti oy ichida tarixiy dramani yozadi. Buni qarangki, odamlar qalbida vatanparvarlik tuyg'usini jo'sh urdiruvchi, qahramonlik ruhidagi bu asar bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Oradan ko'p yillar o'tsa ham Shayxzoda domla asarlari o'z kuch-qudratini namoyon etib kelmoqda. Yaqinda shoir Botir Ergashevning aynan "Jaloliddin Manguberdi" dramasidagi "Ulug'vor niyatlarga kor qilmas ajal, Kim yurtdan yovni quvsu, mendirman o'shal" misrasidan ilhomlanib yozgan she'ri Ozodbek Nazarbekov tomonidan maromiga yetkazib kuylanishi va bu qo'shiq xalqimiz ko'nglidan chuqur o'rinnegallagani bunga yorqin misol.

Darhaqiqat, yurtimizda mustaqillik yillarda tarixda o'chmas iz qoldirgan buyuk siymolarimiz xotirasini e'zozlash ishlari olib borildi. Shunga asosan,

«Jaloliddin Manguberdi» ordeni ta'sis etildi. Vatanparvarlik hissiyoti jo'sh urib yozilgan Maqsud Shayxzodaning «Jaloliddin Manguberdi» dramasi 1945-yilda Hamza nomidagi O'zbek davlat drama teatri tomonidan muvaffaqiyat bilan sahnalashtirilgniga qaramay, ko'p o'tmay, sahnadan olib tashlandi. Muallifga esa o'tmishni, xonlarni, beklarni, feodalizmni oqlash va yoqlash tamg'asi yopishtirildi. Bu «aybnomalar» nohaq qamalishiga ta'sir ko'rsatdi. Drammaning ayrim parchalarigina yozilgan kezlari nashr etildi. Muallif hayotlik chog'ida, biror marta to'lig'icha chop etilgani yo'q. To'lig'icha ilk bor o'zbek tilida dramaturg vafotidan yigirma bir yil o'tgach (1988) bosmadan chiqdi. «Jaloliddin Manguberdi» drammasida ona-Vatan uchun, uning ozodligi uchun bosqinchilarga qarshi kurash olib borgan jasur sarkarda, buyuk hukmdor siymosi o'zining, ayniqsa, tabiiy, jonli tasvirlanishi bilan ajralib turadi. Tasvirdagi qahramon tabiiyligini ta'minlovchi muhim hayotiy omillar bor, albatta. Xalqni, lashkarni dushmanga qarshi birlashtirish va yurt himoyasini uyushtirish yo'lidagi Jaloliddin ko'rsatgan jonbozliklarini saroydagi Badriddin singari munofiq kimsalar va ular ta'sirida dastlab otasi Xorazmshoh ham to'g'ri tushunmaydi. Shunda Jaloliddin «Menga koshonadan chodir yaxshiroq» deb chiqadi va yurt himoyasi uchun qo'shin berishlarini talab qiladi. Amir Badriddin valiahdnинг bu mardona so'zлари ostidagi maqsad vatanparvarlik emas, taxtni egallash deb tushunib, shoh hayot bo'lishiga qaramay, «u taxtga ega bo'lmoqchi» deb ig'vo boshlaydi.

Jaloliddin - qahramon shaxs. U jasur sarkarda, elni, yurtni g'animga qarshi birlashtirayotgan, tashabbusi bilan lashkarni ulug' g'alabalarga ilhomlanirayotgan va bu yo'lida ibrat ko'rsatayotgan valiahd bo'lishiga qaramay, ayni vaqtida, oddiy inson sifatida gavdalanadi. Masalan, Jaloliddin bilan singlisi Sultonbegim o'rtasidagi oddiy



insonlarga xos bo'lgan aka-singillik mehr-oqibatlari shu qadar samimiy va go'zal tasvirlanadiki, kishining havasi keladi. Vatan va xalq taqdirining eng qaltis pallalarida ularni bosqinchilardan himoya qilish uchun otlangan Jaloliddinning bu yo'ldagi shijoatini, jur'atini, jasoratini ko'rsatar ekan, dramaturg o'z qahramonining valiahd va hukmdor sifatidagi xususiyatlaridan ko'ra oddiy inson sifatidagi iztiroblarini, har qanday insonga begona bo'limgan ayrim mas'uliyatli holatlardagi ikkilanishlarni badiiy tasvirlashga alohida e'tibor beradi. Bu esa qahramon xarakterining ishonarli, jonli va hayotiy chiqishini ta'minlaydi. Dushman qo'liga tushib azoblangandan ko'ra, o'limni afzal bilib, hatto dunyodagi eng aziz zot - onasi va farzandlari daryoga cho'ktirilishini ma'qul ko'rgan Jaloliddin Manguberdi va mard Temur Malikning tarixiy haqiqat ruhi bilan yo'g'rilgan siymolari dramaturg Maqsud Shayxzoda qalami ostida ko'z o'ngimizda tirik insondek gavdalanadilar. Dramaturg Chingizzon obrazini mahorat bilan yaratadi. Shunisi muhimki, u bu obrazni qora bo'yoqlarga chaplab tashlamaydi. Tarixiy haqiqatga rioya qilgan holda, bu shaxsnинг Jaloliddin va Temur Malik qahramonligi jasoratiga tan bergenligini ifodalashni unutmagan holda, uning tabiatidagi bosqinchilik, yovuzlikni, pokiza insoniy tuyg'ularni oyoq osti qilish singari xususiyatlarni to'laqonli badiiy gavdalantiradi.

Yuqoridagi qahramonlar tarixiy qahramonlardir. Asarda ular bilan yonma-yon dramada muallif badiiy taxayyulining mahsuli bo'lgan Elbors pahlavon, Yaroqbek, Navkar, No'yon, Tabib chol singari to'qima qahramonlar ham ishtirot etadilar. Ko'rinish turibdiki, Jaloliddin Manguberdi dramasining asosini, mevalarini etakchi qahramonlarini tarixiy shaxslar tashkil etadi. Lekin to'qima personajlarning zimmasidagi yuk ham oz emas. Elbors pahlavon va Chol qiyofalarida, asosan, xalq, xalq vakillari qiyofasi, kuchi mujassamdir. Elbors pahlavon, aslida cho 'pon. U qaltis vaziyatlarda Jaloliddinning yonida bo'ladi. Unga ko'makka keladi. Sarkardani zaharlashga intilgan tabib og'usidan saqlab qoladi. Bosqinchilar bilan ayovsiz janglarda qahramonlik namunalarini ko'rsatadi. Maqsud Shayxzoda bu obrazlarga muhim ma'no yuklar ekan, yurtimizdagи XIII asr tarixiy hodisalarini gavdalantirishdan tashqari, Vatan bosqinchilariga oyoq osti bo'lishida, xalq boshiga azob-uqubatlar yog'ilishida, mustaqillikning qo'ldan ketishida mana shunday xiyonatlarning o'rni oz emas, degan achchiq, lekin muhim degan ma'nolarga ham ishora qilmoqchi bo'ladi. Shunday ekan, ushbu drama Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik singari asosiy qahramonlari bilangina emas, Badriddin, Yaroqbek, Sulton Muhammad Alovuddin singari personajlari bilan ham bizni ogohlikka chaqiradi, Mustaqilligimizni ko'z qorachig'idek e'zozlashga da'vat etadi, xalqni, yoshlarni



vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. «Jaloliddin Manguberdi» dramasi badiiy jihatdan teran asardir.<sup>2</sup>

Albatta, oradan necha ming yillar o'tib ketgan bo'lsa-da, yurt mustaqilligi uchun, uning yov qo'lida qolib vayron bo'lishidan asrab qolish uchun o'z jonini fido qilgan asl vatan farzandlari hamisha tarixning eng oliy haqiqati bo'lib qolaveradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR(REFERENCES)

1. Zokirov M. Maqsud Shayxzoda. Adabiy tanqidiy ocherk, T., 1969 y.
2. Yusuf Shomansur. Shayxzoda — bunyodkor shoir, T., 1972 y. - 179 b.
3. G'afurov I., O'rtoq shoir. Maksud Shayxzoda ijodiyoti, T., 1975 y. - 215 b.
4. Maksud Shayxzoda zamondoshlari xotirasida, T., 1983 y.
5. Maksud Shayxzoda zamondoshlari xotirasida, T., 1983.
6. S. Mirvaliyev, R. Shokirova "O'zbek adiblari" G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti T., 2016.
7. Shayxzoda Maksud. Shoир qalbi dunyoni tinglar (Tanlangan asarlar) // Toshkent, "Nihol", 2008.
8. Cho'lponova Xadicha Toshbayevna, Saliyeva Ug'iloy Kalmurat qizi Maksud Shayxzodaning ijodini o'rganish-yoshlar manaviyatining omilidir. New scientific researchers EUROPE CONFERENCES AND CONURC . Volume issue 1, 2022/ Page 1-8

<sup>2</sup>Cho'lponova Xadicha Toshbayevna, Saliyeva Ug'iloy Kalmurat qizi Maksud Shayxzodaning ijodini o'rganish-yoshlar manaviyatining omilidir. New scientific researchers EUROPE CONFERENCES AND CONURC . Volume issue 1, 2022/ Page 1-8